

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ**

**ШАРОФ РАШИДОВ номидаги
САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ
ТАРИХШУНОСЛИК ВА МАНБАШУНОСЛИК КАФЕДРАСИ**

*Олим, ёшлар мураббийси, тарих фанлари доктори,
профессор Илхомжон Мухиддинович Саидовнинг
70 йиллигига бағишланган*

**ТАРИХ, ТАРИХШУНОСЛИК ВА
МАНБАШУНОСЛИК ФАНИ: ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ МАВЗУСИДАГИ**

**ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ**

САМАРҚАНД - 2023

UDK : 9 (03)

Тарих, тарихшунослик ва манбашунослик фани: илмий тадқиқот натижалари мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллар тўплами. Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2022 й. – 296 б.

Ушбу илмий мақолалар тўплами Ш.Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети тарих факультетида самарали меҳнат фаолиятини олиб бораётган олим, ёшлар мураббийси, тарих фанлари доктори, профессор Илхомжон Мухиддинович Саидовнинг ҳаёти ва илмий ижодига бағишланган дил изҳорлари, профессор-ўқитувчилар, мустақил тадқиқотчилар, докторантлар, магистрантларнинг юртимиз тарихи, тарихшунослиги ва манбашунослиги, археологияси ҳамда хорижий мамлакатлар тарихининг тадқиқот натижалари ва изланишларига оид илмий мақолаларни ўз ичига олган.


Маъсул муҳаррир: т.ф.д., проф. Б.Эргашев, т.ф.ф.д. (PhD) А.Якубов
Илмий котиб: т.ф.ф.д. (PhD) Т.Махмудов
Таҳрир хайъати: т.ф.д., проф. Ф.Набиев, т.ф.н., доц. Д.Раджабова, т.ф.ф.д. (PhD) А.Якубов, т.ф.ф.д. (PhD) Т.Махмудов, асс. Р.Саидова.
Такризчилар: т.ф.д., проф. Ш.Ғаффоров, т.ф.н., доц. Д.Раджабова
Тузувчилар: т.ф.ф.д. (PhD) А.Якубов, т.ф.ф.д. (PhD) Т.Махмудов

Тўплам муаллифлар мақолаларининг асл нусхаси асосида тайёрланган. Мақолалардаги учрайдиган хато ва камчиликлар учун муаллифларнинг ўзлари жавобгар.

Тўплам Ш.Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети Кенгашининг йиғилишида кўриб чиқилган ва нашрга тавсия этилган. (2023-йил 4-июл, №13- сонли байоннома)

ISBN 978-9910-9758-7-5

© Samarqand davlat universiteti, 2023



Мундарижа

ДИЛ ИЗХОРЛАРИ

Д.М.Джуракулова. <i>Фидоий устоз, ажойиб инсон.....</i>	6
М.И.Насруллаев. <i>Хурматга сазовор инсон</i>	8
С.П.Турсунов. <i>Ўзбекистон тарихи фани ривожининг фидоий, комил, донишманд, ватанпарвар устози.....</i>	12
Ф.Тошев. <i>Илм фидоийиси - Илхом Саидов ҳаётига чизгилар...</i>	15
Ф.Х.Набиев. <i>Ўзбекистонда тарих фани ривожига улкан хисса қўшган олим.....</i>	16
Ш.А.Ҳайитов. <i>Дилкаш инсон, муаррих олим, содиқ дўст.....</i>	21
Ш.Воҳидов. <i>Самарқанд аҳлининг зиёли олими ва одами.....</i>	23
Ш.С.Ғаффоров. <i>Тарихчилар мактабининг муносиб давомчиси. Профессор Илхом Саидов илмий-педагогик фаолиятига чизгилар.....</i>	25
А.Якубов. <i>Ҳам илм, ҳам ҳаётдаги Устоз!.....</i>	28

МАНБАШУНОСЛИК

И.Даурбекова, И.Кушшақов. <i>Абу Ҳасан Сагоний илмий фаолияти ("Саҳиҳул Бухорий"нинг "бағдодий" нусхаси кодикологик тавсифи).....</i>	31
А.С.Якубов. <i>Хива хонлигининг Қозоқ жузлари билан муносабатларига оид манбалар.....</i>	41
Г.А.Абдуг'аниева. <i>О'zbekiston SSI harbiy komissarligi faoliyatining arxiv hujjatlarida yoritilishi.....</i>	49
Ж.В.Амirkulov. <i>Bartoldning ilmiy me'rosi Turkiston tarixiy yodgorliklarini o'rganishda muhim manba.....</i>	56
К.Ш.Қаюмова. <i>«Тарихнома» - Темурийлар тарихига оид муҳим манба.....</i>	62

ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ

О.Бўриев, Қ.Нурбоев. <i>Элиунос олима Ф.Д.Люшкевичнинг эронийлар этнографиясини ўрганишга қўшган ҳиссаси.....</i>	68
--	----

Б.С.Ғойибов. “Сугд” этноним ёки топоним?.....	75
Б.Э.Рахимов. Туркистон генерал-губернаторлиги Каспийорти вилояти инфратузилмасида сув йўлларнинг ўрни.....	85
Ф.Бобоев. Бухоро халқ совет республикасининг солиқ сиёсати масаласида айрим мулоҳазалар.....	90
О.А.Исаев. Сурхон воҳаси қишлоқ хўжалиги тарихи.....	95
Ш.С.Гаффаров. Политика заселения туркменских территорий российскими переселенцами в колониальный период.....	102
С.Р. Мухиддинов. Алишер Навои и Камолиддин Бехзод.....	111
Н.А. Назаров. Тарихий қадриятлар ва ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг ўзаро алоқадорлиги..	124
Х.С.Аhmadov. O`zbekiston ssrda lotin alifbosining joriy etilishi masalalari.....	129
Б.С.Ғойибов, Д.Ўроқова. Ўзбекистоннинг илк ўрта асрлар тарихига оид янги қарашлар (Сугд конфедерацияси мисолида).....	133
N.S.Mehmonova. Po‘lat Soliyevning O‘zbekiston ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi.....	141
О.Бўриев. Самарқанд элиунослари сардори эди.....	147
M.I.Nasrullayev, O.Sheraliyev. Islohotlarning yangi bosqichida yangi O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimi rivojlanishi.....	154
I.M.Saidov, A.K.Yuldashev. “Amerika ovozi”ning SSSR parchalanishida tutgan roli tarixi.....	163
M.M.Rustamova. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda gender tenglik siyosati va tarixi masalalari.....	172
S.Sayfiddinov. Mustaqil O‘zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan aloqalari.....	181
Sh.Adizova. Xatirchi tumanining geografik o‘rni.....	187
A.A.Boyqobilov. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston va Rossiya o‘rtasidagi madaniy – ma‘rifiy munosabatlar.....	191
S. Rashidov. Kattaqo‘rg‘on tumanidagi joy nomlari.....	194
Н.З.Хўжанов. Сугд ва Уструшонанинг маънавий- мафкурафий ҳаётдаги алоқалари.....	199
Sh.Mamatqulova, N.Amirqulova. O‘zbekistonning erksevar farzandi - Sharof Rashidov hayoti va ijodi.....	209

элпарварлик ва ватанпарварлик хислатларини юксалтиришда ушбу омилдан ҳам фойдалана билишимиз лозим.

Тарихий қадриятлар сарчашмалари бўлган Ўрхун ёзма ёдгорликларида аждодларимизга хос бўлган мардлик, тантилик, бирлик ва ватанпарварликнинг акс этиши ҳамда бугунги кунда уларни талкин этиб, тарғиб қилиш миллий қадриятларимиз ривожини таъминлаш билан бир қаторда жамиятимиз аъзолари, хусусун ёшлар тафаккурида ватанга ва элга муҳаббат ҳиссининг ривожини юксалтириб борадики, бугунги янгиланишлар шароитида ватанпарварлик ва эл бирлигини янада таъминлаб боришда ушбу омил муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жолдасбеков М., Сарткожаулы К. Атлас Орхонских памятников. – Астана: Культегин, 2006. – С. 8-9.
2. Турсунов Е.Д. Древнетюркский фольклор: истоки и становление. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2001. – С. 8.
3. Батманов И.А. Язык енисейских памятников древнетюркской письменности. – Фрунзе: Изд-во АН Киргизской ССР, 1959. – С. 10.
4. Радлов В.В., Мелиоранский П.М. Древне-тюркские памятники Кошо-Цайдам . – Санкт-Петербургъ: Типография императорской Академии Наук, 1897. – С. 23.
5. Народ в потоке истории. Научная серия /Составители Т.Шанбай, А.Ибраева. – Астана: Фоллиант, 2014. – С. 63-64.
6. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. – Тошкент: «Шарқ», 1998. – Б. 9.

O`ZBEKISTON SSRDA LOTIN ALIFBOSINING JORIY ETILISHI MASALALARI

Ahmadov X.S., Buxoro davlat universiteti tayanch doktranti

XX asrning 20-yillaridan so`ng sovet ittifoqi tarkibidagi davlatlar arab grafikasi islohoti va lotin alifbosini joriy etilishi to`g`risida islohotlar boshlanadi. Alifbo islohotlari va yangi alifboga o`tishga sabab nima bo`lgan, nima uchun mahalliy rahbarlar va milliy ziyolilar millat fidoiylari dastlab arab imlosini isloh qilishga urindilar undan so`ng butunlay yangi bo`lgan lotin alifbosi joriy etishga o`zlarining kuchlarini sarf etdilar ?

Milliy rahbar va ziyolilar xalq manfaati yo'lida alifbo islohoti tarafdori bo'lishgani hech kimga sir emas, lekin aslida bu islohotlarga yo'l qo'yib bergan bolsheviklar va sovet ittifoqi hukumati o'zining manfaatlarini ko'zlar edi. Lotinlashtirish masalasi 1926-yildagi Boku Turkologlarning I qurultoyida qabul qilingan va butun sovet mustamlakalarida joriy etilgan. Bunda 1922-yilda Ozarbayjon rahbari Samadog'a Agamali o'gli Lenin bilan bo'lgan uchrashuvida inqilob yo'l boshchisning Sharq xalqlari yozuvini lotinlashtirish g'oyasini juda iliq kutib olgani hamda uni "Sharqdagi inqilob" deb atagani lotinlashtirish harakatiga zo'r berilishiga olib keldi. Yozuvni o'zgarilishiga rozi bo'lgan sovet hukumati quyidagi manfaatlarni ko'zlagan edi.

- 1) Sharq xalqlari madaniy hayotini revolutsionlashtirish, bu erlarda sotsialistik rejimni o'rnatish, xalq inqiloblarini amalga oshirish,
- 2) Yevropada shakllangan marksizm-leninizm va xalqaro kommunistik harakat nazariyasi va amaliyotini kengroq yoyish uchun bu ishga jiddiy halaqit beradigan hamda o'z vaqtida F. Engels "la'nati yozuv" deb atagan arab yozuvi o'rniga xalqaro yozuvni joriy qilish. Lotin yozuvini joriy etish Sharq tillarida kommunistik adabiyotni keng miqyosda chop etish va tarqatishga yordam berardi,
- 3) Lotin yozuvini joriy etish bilan mahalliy xalqni islom madaniyatida uzoqlashtirish, shu usul bilan mazkur xalqlar orasida ateistik tashviqot olib borish va din, o'tmish madaniyati hamda an'analarini "eskirgan, reaksiyon" deb e'lon qilish mumkin bo'ladi. Kommunistik ideologiya esa bunday reaksiyon narsalarni "ishchi va dehqonlar sinfi" hayotidan butunlay surib chiqarishni talab etar edi,
- 4) Lotin alfavitiga o'tish Rossiyaning Shaqdagi mulklaridagi turkiy va musulmon xalqlarni sovetlashtirish, ruslashtirish uchun bir vosita bo'lib xizmat qiladi,
- 5) Hozircha yagona yozuv (arab yozuvi)da ish ko'rayotgan musulmon va turkiy xalqlarning yozuv hamda til bitligiga barham beriladi, Bu bilan Rossiyadagi turkiy va musulmon xalqlarning orasiga "yozuv devori" quriladi [1, B. 65].

Yuqoridagilar sovet hukumati manfaati edi, lekin mahalliy o'zbek ziyolilari yangi lotin alifbosiga butunlay boshqa maqsadda qaraganlar. Chunonchi, Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilayotga fan va texnologiya sirlarini o'zlashtirish, yosh avlodga til bilish orqali

mamlakatning madaniyati va tarixini dunyoga namoyon etish va boshqa maqsadlar. Ayni damda qo'shni mamlakatlar arab imlosidan vos kechayotganda O'zbekiston SSR ham bunga majbur edi. Bunda birinchidan, sovet hukumati tazyiqi bo'lsa, ikkinchi tomondan, barcha yangi alifboni istayotganda O'zbekiston SSR eski alifboda qololmasligini rahbar va ziyolilar yaxshi anglar edilar.

Sovet davrida turli turkiy tillarda alifbo 3 marta o'zgartirilgan, o'zbek tilida alifbo 4 marta o'zgartirilgan: 1921-1928-yillarda arab alifbosi ishlatilgan, u 9 ta unli tovushni aks ettiruvchi 9 ta harfdan iborat edi. 1926 yilda Bokuda bo'lib o'tgan umumiy turkologiya qurultoyida lotin alifbosi qabul qildi 1928 - 1940, lekin 1934 yilda o'zbek tilida bu alifbodan tor unli "ö", tor unli "ü" va keng unli "ı" ni ifodalovchi 3 ta harf olib tashlandi. 1940-yilda o'zbek alifbosi tuzilganda kirill alifbosiga asoslangan yangi alifboda "ö", "ü", "ı" harflarini aks ettiruvchi tovushlar mavjud emas edi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, 1995 yilda qabul qilingan lotin alifbosida ö, ü, ı tovushlari ham kiritilmagan. [2, B. 55] Masalan 1937-yilgi O'zbekiston SSR konstitutsiyasining 144-moddasida yozilishicha: O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat bayrog'i qizil rangda bo'lib tepasining burchagida oltin harflar bilan:

- a) yuqorida o'zbekcha: "Ozbekstan SSR",
 - b) pastda ruscha: "Узбекская ССР", deb yozilgan [3, B.13].
- Yuqorida aytilganidek, "Ozbekstan" so'zida "ö", "ı" tovushlari qo'llanilmagan.

E. Qodirov "O'zbekistonda 1929-yil yangi alifboga o'tildi", deb ma'lumot beradi. Ammo bu harakatlar oldinroq boshlandi. O'zbekistonda 1926-yilda alfavitni lotinlashtirish sohasida jiddiy ish boshlandi. 1926-yilning iyulida O'zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti Sovetlar 6-Sessiyasi qaroriga muvofiq, lotinlashtirish Markaziy Komiteti barpo etildi. Yangi alfavitda unli tovushlar uchun 9 harf va undosh tovushlar uchun 23 harf belgilandi. Konferensiya tamom bo'lgandan keyin, yangi alfavit bilan tanishtirish va bu alfavitni amaliy suratda turmushga oshirish maqsadi bilan, aholi o'rtasida juda keng ko'lamda ommaviy targ'ibot ishlari faollashtirib yuborildi. [4, B. 6]

1926 - yilning 16 - oktyabrida O'zbekiston Sho'rolar jumxuriyati Markaziy Qo'mitasi o'zining 88-sonli qarori bilan Yangi Alifbo Markaziy va Mahalliy qo'mitalari nizomini tasdiqlaydi. 1927 yilning 28-29 - mayida Samarqandda O'zbek, Qozoq va Qirg'iz jumhuriyatlari

vakillarining birlashgan kengashi bo`lib o`tdi, unda O`rta Osiyo turkiy xalqlari uchun umumiy bo`lgan alifbo ishlab chiqiladi. 1928 yilning yanvarida Toshkentda Butunittifoq Yangi Alifbe Markaziy Qo`mitasining ikkinchi plenumi bo`lib o`tdi. Plenumda yangi (lotinlashtirilgan) alifboga o`tish yo`lida uchrab turgan to`siqlarni engib, alifbo islohotini tezlashtirish kerakligi, bu zamon talabi ekanligi alohida ta`kidlanadi. 1929 yilning 7 avgustida SSSR Xukumatining yangi alifboni amalga kiritish to`g`risidagi qarori e`lon qilinadi. 1929 - yilning 10 - avgustida O`zbekiston Xalq maorifi komissarligi kollegiyasining yig`ilishi bo`ladi. Unda may oyida (Samarqandda) bo`lib o`tgan til-imlo konferensiyasi tavsiya qilgan yangi imlo qoidalari tasdiqlanadi [5, B. 34-59].

Xulosa qilib aytganda, O`zbekiston SSRda lotin alifbosiga o`tish jarayonlari boshqa mustamlaka mamlakatlaridek jadallik bilan olib borilgan, respublikadagi har bir viloyatda savodsizlikni tugatish kusrlari tashkil etilgan. Bu kurslarda dastlab o`qituvchilar tayyorlanib, undan so`ng boshqa barcha kasb egalarini savodini lotin alifbosida chiqarishga harakat qilingan. Lekin lotin alifbosi ham uzoq turmadi 1941-yilda lotin alifbosi kirill alifbosi bilan almashtirildi, bu esa savodsizlik yana ortishi va ko`plab murakkab mafkuraviy jarayonlarni keltirib chiqardi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Eltazarov J.D. O`zbekistonda XX asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Samarqand: SamDU nashri, 2017. -65 b.
2. Шамсиддин Камолиддин, Тимур Коджаоглу. Проект культурной автономии Туркестана Махмудходжи Бехбуди. Текст. Перевод. Комментарии. Saarbrücken: LAP, 2021. 300 с.
3. Конституция (Основной Закон) Узбекской Советской Социалистической Республики. Партиздат ЦК КП(б) Уз.- Ташкент, 1938.
4. Akramov D.F. Sovetlar hukmronligi davrida alifboning o`zgartirilishi // *Фундаментал тадқиқотлар*. № 1 (2023) Б. 103-107.
5. Жамолхонов Х, Сапиев Қ. Имло муаммолари. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2007. 34-59-бб.